



## ATOM ENERGETIKASINING HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING TARIXIY VA TADRIJIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi*

*Jurakulova Rushana Sharofovna*

*E-mail: [jurakulovarushana74@gmail.com](mailto:jurakulovarushana74@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada atom energetikasini huquqiy tartibga solish masalasi yoritib berilgan bo'lib, bu maqolani o'qish orqali atom energetikasini huquqiy tartibga solishning tarixiy va bugungi davrda amalga oshirilayotgan tizimli ishlar bilan tanishhasiz. Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarda foydalanish uchun qabul qilingan turli xalqaro hujjatlarning qabul qilinish uchun zarurat va ularning qanchalik samarali ishlayotganligi yoritib berilgan. Xalqaro tashkilotlarga a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorliklar va bu tashkilotlarning faoliyati haqida tanishishingiz mumkin.

**Kalit so'zlari:** MAGATE, atom energiyasi, xalqaro hujjatlar, xavfsizlik masalalari, kelishuvlar, konsepsiya, protokol.

### ИСТОРИЧЕСКИЕ И ПОСТЕПЕННЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ

*Студентка 3 курса Ташкентского государственного юридического университета факультета частного права*

*Журакулова Рушана Шарофовна*

*Электронная почта: [jurakulovarushana74@gmail.com](mailto:jurakulovarushana74@gmail.com)*

**Аннотация.** В данной статье освещен вопрос правового регулирования атомной энергетики. Прочитав эту статью, вы познакомитесь с исторической и системной работой по правовому регулированию атомной энергетики, которая проводится в современный период. Объясняется необходимость этого



и насколько они эффективны. Вы сможете узнать о взаимном сотрудничестве между государствами-членами международных организаций и деятельности этих организаций.

**Ключевые слова:** МАГАТЭ, атомная энергия, международные документы, вопросы безопасности, соглашения, концепция, протокол.

## HISTORICAL AND GRADUAL DEVELOPMENT STAGES OF LEGAL REGULATION OF NUCLEAR ENERGY

3nd year student of Tashkent State University of Law

Faculty of Private Law

*Jurakulova Rushana Sharofovna*

E-mail: [jurakulovarushana74@gmail.com](mailto:jurakulovarushana74@gmail.com)

**Annotation.** The issue of legal regulation of atomic energy is highlighted in this article. By reading this article, you will get acquainted with the historical and systematic work of legal regulation of atomic energy that is being carried out in the present period. The need to do this and how effective they are is explained. You can learn about mutual cooperation between member states of international organizations and the activities of these organizations.

**Key words:** IAEA, atomic energy, international documents, safety issues, agreements, concept, protocol.

### KIRISH

1945-yil avgust oyida Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasining tashlanishi yangi tarixiy davrni boshlab berdi. Bu davr “atom asri” nomini oldi. Haqiqatdan ham XX asr atom energiyasini huquqiy tartibga solish, undan tinch maqsadlarda foydalanish yuzasidan olib borilgan ishlar asri bo’ldi desak mubolag’ a bo’lmaydi. Bu davrgacha ham atom borasida turli izlanishlar olib borilgan. Albert Eynshteyn, Niels Bor, Mari Kyuri, Ernest Rutherford, Jeyms Chadvik, J.Robert Oppeneymer va boshqalar.



**Niels Bor-** atom tuzilishini va kvant mexanizmini tushunishimizga hissa qo'shgan olim hisoblanadi. Bor ham atom bombasini yaratishda ishtirok etgan olimlardan biri. Keyinchalik u atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish tarafdarlaridan biriga aylangan.

**Oppeneymer-** Ikkinci jahon urushi davrida birinchi atom quollarini ishlab chiqqan olim hisoblanadi. Uni shuning uchun ham "atom bombasining otasi" deb atashadi.

Atom energiyasi haqida fizik olimlar turlicha fikrlarni keltirib o'tishgan. Jumladan, Albert Eynshteyn "Atom energiyasi ham yaxshilikka, ham yomonlikka xizmat etuvchi. Uning insoniyat farovonligi uchun tinch maqsadlarda va nazorat ostida ishlatilishi olimlar va butun bir jamiyat sifatida bizning ma'suliyatimizdir"<sup>1</sup>, - degan va yana bir fizik olim Alvin M.Vaynberg 1945-yilda AQSHda so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Atom energiyasi o'ldirishi bilan birga davolaydi. U mintaqani boyitishi bilan, uni vayron qilishi ham mumkin"<sup>2</sup>. Shunday ekan atomdan xavfsizlik qoidalariga amal qilmay foydalanish butun bir borliqni izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Undan samarali foydalanishni yo'lga qo'ya olish esa nurli kelajakka poydevor bo'la oladi.

Atom energiyasi atomlardan olinadigan energiya hisoblanadi. Atom energiyasini keljak energiyasi deb atasak bo'ladi. Atom energiyasidan foydalanishda nurlanishni va undan chiqadigan chiqindilarni yo'qota olsak atom energiyasi biz uchun eng qulay energiya bo'la oladi. Atom energiyasidan foydalanishning ustunlik tomonlariga to'xtaladigan bo'lsak, atom energiyasini hosil etishda havoga zaharli gazlarning ajaralishi kam hisoblanadi. Atom energiyasini hosil etishda foydalilanidigan uran arzon ham bo'lib, energiya narxlarida arzonlashishlarga sabab bo'la oladi. Uranning atiga bir kilogrammidan millionlab kilogramm ko'mir va neftni yoqishdan hosil qilingan issiqlikni olish mumkin.

<sup>1</sup> <https://www.americanrhetoric.com/speeches/albersteinpostwarworld.htm>

<sup>2</sup> J.Samuel Walker va Tomas R.Wellock "Yadroviy tartibga solishning qisqacha tarixi, 1946-2009"-2010-oktyabr; U.S.NRC



Atom energiyasidan foydalanishning salbiy jihatlari ham mavjud bo'lib, undan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qilinmasa juda katta salbiy oqibatlarga olib keladi. Masalan, uranni omborxonalarda saqlash qoidalariga amal qilinmasa, juda daxshatli avariya holatlari yuz berishi mumkin. Yadro chiqindilarini ham yo'q qilishning hali muqobil usuli yaratilinmagan. Eng katta salbiy jihat shu hisoblanadi.

Bugungi kunda bu kabi muammolarni hal etish bo'yicha tizimli ishlar amalgalashirilmoqda. Turli xalqaro darajadagi hujjatlar qabul qilinmoqda va turli tashkilotlar o'z faoliyatini shu sohada olib bormoqda.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR :**

Atom energiyasini huquqiy tartibga solish jarayoni xalqaro miqyosida MAGATE ya'ni Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlikning tashkil topishi bilan boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Keling, atom energiyasini huquqiy tartibga solish tarixini uch boshqichga bo'lib o'rganamiz. Bular:

- 1. MAGATEning tashkil topishi va u o'z faoliyati davomida atom energiyasini huquqiy tartibga solishga qaratilgan hujjatlarni qabul qilishi;**
- 2. Atom energiyasidan foydalanishda xavfsizlik choralarini yanada rivojlantirish davri;**
- 3. Bugungi kunda atom energiyasini huquqiy tartibga solish.**

**1-davr.** MAGATE tashkil topishi natijasida atom energiyasini huquqiy tartibga solish xalqaro darajada amalgalashirila boshlandi. Keling, MAGATEning qanday tashkil topganligini va u tomonidan qabul qilingan hujjatlar bilan tanishib chiqsak:

#### **Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE)**

MAGATE 1957-yilda kashfiyotlar va yadroviy texnologiyalarning turli xil qo'llanilishi natijasida yuzaga kelgan chuqur qo'rquv va umidlarga javoban yaratilgan xalqaro tashkilot hisoblanadi.

BMTning Nyu-Yorkda bo'lган konfrensiyasi natijasida tashkil etilgan. Nizom asosida ish olib boradi. Nizomi 1956-yil sentabrda qabul qilingan va 1957-yil 29-iyuldan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi. BMT bilan rasmiy aloqasi bu tashkilotning 1957-yil 14-noyabrdagi bitimga muvofiq amalgalashiriladi. Har yili BMTning Bosh Assambleyasiga va Xavfsizlik Kengashiga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etib



boradi. (MAGATE nizomining 3-moddasi B qismida). Bu agentlikning asosiy maqsadi atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishni yo'lga qo'yish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hisoblanadi.

MAGATEning asosiy faoliyatiga quyidagi sohalar kiradi:

- qurol-yarog‘ ishlab chiqaradigan yadro texnologiyalarini qattiq nazoratga olish;
- yadro energetikasi sohasida yordam ko‘rsatish;
- radioaktiv chiqindilarni to‘g‘ri va xavfsiz ko‘mish;
- shu sohaga oid norma va qoidalarni ekspert-yuristlar yordamida tayyorlash;
- ilmiy tadqiqot dasturlarini qo‘llab-quvvatlash;
- avariyalarga oid dasturlar ishlab chiqish;
- qishloq xo‘jaligida yadroviy usullar va radioaktiv moddalar yordamida hosildorlik va tuproq unumdarligini oshirish;
- qishloq xo‘jaligi va chorvachilikda hasharotlar va kasalliklarga qarshi kurashda yordam berish kabilar hisoblanadi.

(Nizomning 3-moddasida bu sohalar aks ettirilgan).

MAGATE Nizomining 2-moddasiga ko‘ra:

“ Agentlik atom energiyasining butun dunyoda tinchlik, salomatlik va farovonlik maqsadida foydalanishni jadallashtirish va kengaytirishga intiladi. Utomonidan ko‘rsatilingan yordam har qanday harbiy maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi ”. MAGATEning asl maqsadi shu moddada o‘z aksini topgan desak bejiz bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi 1994-yil 21-yanvarda MAGATEga a’zo bo‘lib, xalqaro standartlarni tan olish, atom energiyasidan xalq xo‘jaligida foydalanish, radioaktiv moddalar bilan xavf-xatarsiz ishlashda xalqaro standartlar, qonun-qoidalarga rioya qilishni o‘z zimmasiga olgan.

2022-yildagi statistikaga ko‘ra, MAGATEga a’zo davlatlarning soni 178ta ga yetgan. BMTga a’zo davlatlar va “ Muqaddas taxt ”ham bu tashkilotga a’zo hisoblanadi. 1997-yildagi holatga ko‘ra bu tashkilotga 114ta davlat a’zo edi. Demak,



kundan kunga atom energiyasidan foydalanishga qiziquvchilarning soni ortib bormoqda ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, MAGATE atom energiyasidan foydalanisni tartibga soluvchi eng muhim tashkilot hisoblanadi va u o'z faoliyatini o'z nizomi asosida olib boradi. Nizomda atom bilan bog'liq munosabatlar to'la aks etgan deya olamiz. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak nizomga shu yillar mobaynida uch marotaba o'zgartirish kiritilgan.

**MAGATE o'z faoliyati davomida kafolatlar va himoya masalalarida bir necha kelishuvlarni qabul qilgan. Bu kelishuvlar quyidagilar hisoblanadi:**

**a) Keng qamrovli xavfsizlik kelishuvi (CSA).**

MAGATE bilan CSAni tuzgan davlatlar o'z yadroviy materiallarini deklaratsiyalashi kerak bo'ladi. MAGATE bu deklaratsiya to'liq va to'g'ri ekanligi yuzasidan tekshiruvni amalga oshiradi. CSAni imzolagan davlatlar himoyalanishi va xavfsizligi ta'minlanishi kerak bo'lган yadroviy materiallarni turi va miqdorini hisobot qilib agentlikka toipshirishi kerak. Shuningdek, CSA kelishuvni amalga oshirgan davlatlarning yurisdiktsiyasidagi yadroviy materiallarni noo'rin foydalanmayotganligini va undan tinch maqsadlarda foydalanishi yuzasidan muntazam tekshiruvlarni amalga oshirish huquqini ham beradi.

MAGATE ma'lumotlariga qaraganda, 2022-yil mart oyi holatiga ko'ra 178 ta davlat ham kafolatlar bo'yicha keng qamrovli kelishuvlarni tuzishgan. Bu davlatlar har yili MAGATEga hisobotlarini taqdim etib borishadi.<sup>3</sup>

**b) Qo'shimcha protokol (AP).**

Bu ixtiyoriy kelishuv hisoblanadi. Biroq hozirgi vaqtida MAGATE bu hujjatga majburiy qabul qilish tusini bermoqda. Bu protokol himoya choralarini samaradorligi va shaffofligini oshiradi. Agentlikka davlatlarning yadroviy dasturi haqida kengroq bilish imkonini yaratuvchi bitim hisoblanadi. Bu protokolni qabul qilish orqali MAGATE deklaratsiyalanmagan obyektlar mavjudligi haqida xabardor bo'lsa unga bemalol, ogohlantirishsizlar bilan kirish huquqini beradi. Qo'shimcha protokol asosida

<sup>3</sup> <https://www.iaea.org/topics/safeguards-agreements>



MAGATE yadroviy yoqilg'i aylanishi bo'yicha tadqiqotlar va ishlarni, uran konlaridan tortib yadro chiqindilarigacha bo'lgan davlatning yadro yoqilg'isi aylanishining barcha qismlarini o'rganishi mumkin.

Namunaviy qo'shimcha protokol 1997-yilda Boshqaruvchilar Kengashi tomonidan davlatlarning keng qamrovli kelishuvlarini yanada to'ldirish uchun qabul qilingan. 2016-yildagi holatga ko'ra 128ta davlat qo'shimcha protokol tuzgan. 2021-yil dekabr holatiga ko'ra, 138 ta davlat qo'shimcha protokollarni tuzishgan. Shuningdek, 138tadan tashqari 15 ta qo'shimcha protokol ham qabul qilingan bo'lib, hali kuchga kiritilmagan hisoblanadi.

### c) Kichik miqdorlar protokoli (SQP).

Kichik miqdorlar protokoli keng qamrovli xavfsizlik kelishuvi bilan birga tuzilishi mumkin bo'lgan protokoldir. Bu protokol 1971-yildan beri mavjud va 1974-yilda standartlashtirilgan hisoblanadi. Cheklangan yadroviy faoliyat yoki materiallarga ega bo'lgan davlatlarga amal qiladi.<sup>4</sup> MAGATE uchun davlatning yadroviy dasturini tekshirishi imkonini beruvchi hujjat hisoblanadi.

Yuqorida uch kelishuv ham MAGATEga atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishni nazorat qilish imkonini yaratib beradi. Bu protokol va hujjatlar asosida xavfsizlik va himoya usullari chuqur tatbiq etiladi.

### 2-davr. Atom energiyasidan foydalanishda xavfsizlik choralarini yanada rivojlantirish davri.

Atom energiyasidan foydalanishda xavfsizlik choralarini yanada rivojlantirish, XX asrning o'rtalarida ayniqsa 1986-yildagi Chernobil va 2011-yildagi Fukusimadagi halokatli hodisalardan so'ng yanada kuchaydi. Xavfsizlik masalari bo'yicha turli xil xalqaro huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi. Bu hujjatlarni tahlil etib o'tamiz:

**2. Yadroviy xavfsizlik to'g'risidagi konvensiya** butun dunyo bo'ylab atom elektr stansiyalari xavfsizligini oshirishga qaratilgan xalqaro shartnomadir. Bu konvensiya 1994-yilda qabul qilingan bo'lib, 1996-yilda kuchga kirgan. U yadro xavfsizligining turli jihatlarini, jumladan, atom elektr stansiyalarini loyihalash, qurish, ishlatish va foydalanishni o'zida qamrab olgan. Konvensiya global miqyosida yadro

<sup>4</sup>"Safeguards Implementation Guide for States with Small Quantities Protocols" Vienna, April; 2013



xavfsizligini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvini rag'batlantiradi. Bugungi kunda 80dan ortiq davlat bu konvensiyaga a'zo bo'lган. U mamlakatlar uchun ma'lumot almashish va xavfsizlik choralar bo'yicha hamkorlik qilish uchun asos yaratadi. Shuningdek, u favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va javob choralarini, shuningdek, yadroviy xavfsizlik bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani o'z ichiga oladi. Konvensiya shaffoflik, taraflarni tekshirish va yadro xavfsizligi standartlarini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi.

Bu konvensiyaga a'zo davlatlar o'zlarining yadroviy obyektlarini vaqtı-vaqtı bilan xavfsizlik doirasida tekshiruvdan o'tkazishi kerakligi belgilangan. Bu konvensiya shuningdek, bu konvensiyaga a'zo davlatlarni yadro xavfsizligi borasidagi qarorlarini qabul qilishda jamoatchilikni ham jalb etishga chorlaydi.

**3.Iste'mol qilingan yoqilg'i va radioaktiv chiqindilarni boshqarish xavfsizligi to'g'risidagi qo'shma konvensiya** - bu ishlatilgan yoqilg'i va radioaktiv chiqindilarni xavfsiz boshqarishni ta'minlashga qaratilgan xalqaro shartnoma.

Konvensiya 1997-yilda qabul qilingan va 2001-yilda kuchga kirgan. U Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) tomonidan nazorat qilinadi va dunyoning ko'plab mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiya ishlatilgan yoqilg'i va radioaktiv chiqindilar bilan xavfsiz ishslash, saqlash, tashish va utilizatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Unda ushbu materiallarni boshqarish tamoyillari va talablari, jumladan, milliy siyosat va me'yoriy-huquqiy bazani yaratish, xavfsizlik choralarini amalga oshirish va jamoatchilikni axborot bilan ta'minlash bo'yicha tamoyillar belgilangan. Konvensiya ishlatilgan yoqilg'i va radioaktiv chiqindilarni boshqarishda xavfsizlik standartlari va amaliyotlarini doimiy ravishda takomillashtirishni ta'minlash uchun xalqaro hamkorlik, ma'lumot almashish va o'zaro baholashni rag'batlantiradi. Shuningdek, u mamlakatlarni ushbu materiallarni uzoq muddatli boshqarish bo'yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashga undaydi.

Bu konvensyaning samaradorligini quyidagilar asosida baholaymiz:

-konvensiya mamlakatlar uchun ishlatilgan yoqilg'i va radioaktiv chiqindilarni boshqarish xavfsizligi bo'yicha mustahkam me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va



qo'llab-quvvatlash uchun asos yaratdi. Konvensiyaning samaradorligi mamlakatlarga bog'liq bo'lib, bu konvensiyaning qoidalari va yo'riqnomalarini qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq

-konvensiya tomonlardan atom energiyasidan foydalanishdagi xavfsizlik choralarini amalga oshirish to'g'risidagi hisobotni taqdim etishni belgilab qo'ygan. Bu jihatning samaradorligi tomonlarning hisobotni qanchalik ma'suliyat bilan taqdim etishida va konvensiyada belgilangan xavfsizlik qoidalariiga amal qilishda ko'rindi.

-konvensiya doirasida tomonlar bir birining xavfsizlik bo'yicha milliy dasturlarini ko'rib chiqadigan va baholaydigan o'zaro baholash jarayonini ham tashkil etadi. Bu jarayon xavfsizlik choralarini yanada yaxshilash imkonini va davlatlarning o'zaro hamkorligini tashkil etish imkonini beradi.

#### **4.Yadroviy avariya yoki favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatish to'g'risidagi konvensiya.**

1986-yilda Chernobildagi AESdagi avariyadan so'ng qabul qilingan konvensiya hisoblanadi. Bu hujjat MAGATEga a'zo davlatlar shunday holatlar yuz berganda bir-birlariga yordam berishlari uchun huquqiy asos bo'la oladi. Har bir davlat o'zidagi mutaxassislar, uskunalar va materiallar to'g'risida MAGATEni xabardor qiladi. Favqulodda shunday vaziyatlar yuz berganda so'rov orqali, ular shu vositalar orqali yordam berishi mumkinligi ko'zda tutiladi. Konvensiya 1986-yil 26-sentyabr kuni qabul qilingan va rasman 1987-yil 26-fevralda kuchga kirgan hisoblanadi.

**5.Parij kelishuvi.** 2015-yilda qabul qilingan Parij kelishuvi birinchi navbatda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashga qaratilgan hujjat hisoblanadi. U atom energiyasini maxsus tartibga solmasa-da, issiqxona gazlarini, chiqindilarini kamaytirishda kam uglerodli texnologiyalar, jumladan atom energiyasi muhimligini tan olgan hujjat. Kelishuv mamlakatlarni barqaror energiya manbalariga, jumladan, atom energiyasiga o'tish borasidagi sa'y-harakatlarini kuchaytirishga undaydi. Biroq, atom energiyasiga oid o'ziga xos huquqiy qoidalari va siyosatlar har bir mamlakat tomonidan belgilanadi. Ta'kidlash joizki, Parij kelishuvi, birinchi navbatda, maxsus energiya manbalari uchun batafsil qoidalarni taqdim etish o'rniga, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishini yumshatish bilan bog'liq kelishuv hisoblanadi. Hozirgi kunda 197 ta



davlat Parij kelishuviga qo'shilgan. Biroq, bu mamlakatlarning hammasi ham atom energiyasi dasturlariga ega emas yoki atom energiyasidan foydalanmaydi. Parij kelishuvi ishtirokchilari bo'lgan bir qancha davlatlar yadroviy energetika dasturlariga ega, jumladan AQSh, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya. Bu mamlakatlar elektr energiyasi ishlab chiqarishda atom energiyasiga turli darajada tayanadi va undan foydalanishni tartibga solish uchun o'ziga xos qoidalar va siyosatlarga ega. Bu kelishuv atom energiyasidan foydalanishni to'g'ridan to'g'ri tartibga solmaydi. Bitimning asosiy e'tibori issiqxonalar gazlari chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga qaratilgan.

### Statistik ma'lumotlar:

-MAGATE ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil avgust oyiga holatiga ko'ra, dunyoning 30 davlatida 440ta atom energetikasi reaktorlari ishlayapti.

-Atom elektr stantsiyasining o'rtacha ishlashiga asoslanib, bir metrik tonna urandan taxminan 3,5 million megavatt-soat (MVt) elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Bu taxminan 1,6 milliard kilovatt-soat (kVt/soat) yoki 5,8 trillion joulga teng. Bu qiymatlar o'ziga xos reaktor dizayniga, yoqilg'i tarkibiga, samaradorlikka va operatsion omillarga qarab farq qilishi mumkin.

### XULOSA VA NATIJALAR :

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida qayd etib o'tgan barcha hujjatlarimiz atom energiyasini qaysidir jihatlardan huquqiy tartibga solishga qaratilgan. Bu hujjatlarda umumiylilik va ba'zi farqli jihatlar mavjud ekanligini ham yuqorida keltirib o'tdik. O'rta Osiyo mintaqasida Qozog'iston va O'zbekiston atom energiyasi bo'yicha imkoniyatlarga ega davlatlar sifatida qaraladi. Uran ishlab chiqarish bo'yicha Qozog'iston birinchi, O'zbekiston yettinchi o'rinda turadi.<sup>5</sup> Bu 2 davlat ham MAGATEga a'zo hisoblanishadi. 2021-yilga kelib MAGATE yurtimizni atom elektr stansiyasini qurishga tayyor deb topdi. Shu davrdan boshlab O'zbekistonda ham AES qurish ishlari Rossiya bilan hamkorlikda amalga oshirilishi boshlandi. Bu masalada 2 tomonlama shartnomalar ham imzolandi. O'zbekistonda AESning birinchi energobloki

<sup>5</sup> <https://kun.uz/uz/news/time/uzbekistonda-birinci-aes-kurilisi>



2028-yil oxiriga qadar ishga tushirilishi rejalashtirilgan. O'zbekistonda qurilayotgan AES xavfsizlikning barcha talablariga asoslangan holda tashkil etilishi belgilangan.

Atom energiyasini huquqiy tartibga solish bo'yicha xalqaro hujjatlarning o'zaro huquqiy kuchi turli omillarga bog'liq, masalan, tegishli shartnomalar yoki bitimlarga, ishtirokchi mamlakatlarning roziligidagi va ularning ichki huquqiy tizimlariga. Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnama (NPT) va Yadro xavfsizligi to'g'risidagi konvensiya kabi shartnomalar imzolagan davlatlar o'rtasida majburiy majburiyatlarni o'rnatishga qaratilgan. Biroq, ushbu hujjatlarning samaradorligi va ijro etilishi mamlakatlarning rioya qilishga tayyorligi va nizolarni monitoring qilish va hal qilish mexanizmlariga qarab farq qilishi mumkin. Yuqoridagi barcha hujjatlarni nazoratini MAGATE tashkiloti olib boradi va bu sohani tartibga solishda eng muhim tashkilot ham hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1."Legal frameworks for long-term operation of nuclear power reactors"book 2019.
- 2."A short history of nuclear regulation,1946-2009" by J.Samuel Walker and Thomas R.Wellock;2010
3. "Safeguards Implementation Guide for States with Small Quantities Protocols" Vienna,April;2013
4. <https://www.iaea.org/about/statute>
5. <https://kun.uz/uz/news/time/uzbekistonda-birinci-aes-qurilishi>
- 6.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Atom\\_energiyasi\\_bo%CA%BByicha\\_xalqaro\\_agentlik](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Atom_energiyasi_bo%CA%BByicha_xalqaro_agnetlik)
7. <https://law.gwu.libguides.com/c.php?g=478543&p=7703834>
- 8."International Nuclear law: history, evolution and outlook" book 2010.
9. <https://www.nti.org/analysis/articles/uzbekistan-overview/>
- 10.<https://www.iaea.org/>
- 11.<https://www.bmuv.de/en/topics/nuclear-safety/overview-nuclear-safety/europe/euratom>
12. <http://large.stanford.edu/courses/2018/ph241/keval1/>
13. <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>



14. <https://www.nti.org/education-center/treaties-and-regimes/convention-nuclear-safety/>
15. <https://history.state.gov/milestones/1961-1968/npt>
16. <https://www.americanrhetoric.com/speeches/albersteinpostwarworld.htm>